

TANQIDIY FIKRLASH VA AXBOROTNI TAHLIL QILISH

Zamonaviy ta'limda o'qituvchining asosiy vazifasi faqat ma'lumot berish emas, balki o'quvchida mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishdir. Chunki tanqidiy fikrlash — bu insonni noto'g'ri axborot ta'siridan himoya qiluvchi, to'g'ri qaror chiqarishga yordam beruvchi tafakkur madaniyatidir.

Axborotni tekshirishning o'zi texnik ko'nikma bo'lishi mumkin, lekin uni **tanqidiy fikrlash asosida** bajarish — ongli, mantiqli yondashuvni talab etadi. Boshqacha aytganda, biz “axborotni qayerdan topdik?” degan savoldan tashqari, “nega bu xabar paydo bo'ldi?”, “kim bundan foyda ko'radi?”, “men nega bunga ishonishim kerak?” kabi savollarni bera olishimiz zarur.

Tanqidiy fikrlash — bu axborotni tekshirishni avtomatik odatga aylantiruvchi aqliy mexanizmdir. U orqali inson manbani tahlil qiladi, maqsadni anglaydi va manipulyatsiyani sezadi. 5W1H va CRAAP testi bu fikrlash jarayonining amaliy vositalari bo'lib, ular o'qituvchiga darsda, hayotda va ijtimoiy tarmoqlarda har bir xabarni ongli tahlil qilish imkonini beradi.

Axborotni tekshirish texnika emas — bu tafakkur madaniyatidir. Shunday madaniyatni egallagan pedagog o'quvchilarga ham faqat haqiqatni izlashni, dalil bilan fikrlashni o'rgatadi.

Har bir xabarni qabul qilayotganda inson faqat ko'zi bilan o'qimaydi, balki yuragi bilan his qiladi. Shuning uchun haqiqiy tahlil shunchaki “faktlarni solishtirish” emas, balki axborot bizning hislarimizni qanday boshqarayotganini sezishdan boshlanadi. Keling, quyidagi savollarni chuqurroq ko'rib chiqamiz. Ular oddiy ko'rinadi, ammo har biri inson tafakkurining ichki qatlamini harakatga keltiradi.

Yolg'on axborotning eng kuchli quroli — fakt emas, hissiyotdir. Ushbu holatni ko'pchiligimiz har doim ham hisobga olavermaymiz. “Qo'rquv”, “g'azab”, “nafrat” yoki “hayrat” uyg'otadigan xabarlar ongni tahlil qilishdan to'xtatadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqda “Bola maktabda o'qituvchi tomonidan jazolandi” degan xabar chiqdi. Birinchi reaksiya — g'azab. Ammo tanqidiy fikrlovchi inson o'zini to'xtatib, so'raydi: “Bu men his qilayotgan g'azab meniki emasmi, menga singdirilgan hissiyot emasmi?” Shunda u mantiqqa qaytadi va tekshiruvni boshlaydi. Shuning uchun axborotni tahlil qilishning birinchi bosqichi hissiyotlarimizni kuzatish. Agar xabar bizni tez reaksiya berishga undasa, demak u hissiy manipulyatsiya bo'lishi mumkin.

Axborotni tahlil qilishda eng qulay va tezkor usullardan biri bu 5W1H metodi hisoblanadi. Bu metod ingliz tilidagi oltita so'zning bosh harflaridan

olingan bo‘lib, har qanday xabar ortidagi mantiqiy tuzilmani ochib berishga yordam beradi. 5W1H deganda “Kim?”, “Nima?”, “Qachon?”, “Qayerda?”, “Nima uchun?” va “Qanday qilib?” degan savollar nazarda tutiladi. Bu savollar har qanday axborotni tahlil qilishda yo‘l ko‘rsatuvchi asosiy mezonlardir.

Masalan, “Viloyatda yangi o‘quv dasturi to‘xtatildi” degan xabarni olaylik. Bunday xabarni 5W1H usuli yordamida tekshirishda avvalo “Kim to‘xtatdi?” degan savol beriladi. So‘ng “Qaysi dastur haqida gap ketmoqda?”, “Qachon bu voqea sodir bo‘lgan?”, “Qayerda bu haqda aytilgan?”, “Nima uchun bunday qaror qabul qilingan?” va “Qanday qilib bu haqda xabar tarqalgan?” kabi savollar qo‘yiladi. Agar ushbu savollarning birortasiga aniq javob topilmasa, demak, bu xabar ishonchsizdir. Shuning uchun 5W1H faqat jurnalistlar uchun emas, balki har bir o‘qituvchi, talabalar yoki axborot bilan ishlaydigan insonlar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi, mantiqiy tahlilni shakllantiruvchi samarali metod hisoblanadi.

Axborotni baholashning yana bir ishonchli usuli CRAAP testi bo‘lib, u Kaliforniya Davlat Universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu tizim axborotni besh mezon asosida baholaydi. Birinchi mezon yangiligi, ya‘ni axborot qachon e‘lon qilinganligi va uning dolzarbligini aniqlash. Ikkinchi mezon mavzuga mosligi, ya‘ni ma‘lumot sizning o‘rganayotgan mavzuingiz yoki ehtiyojingga qanchalik mos kelishini baholash. Uchinchi mezon mualliflik, ya‘ni axborotni kim yozgani, u sohada mutaxassis yoki oddiy foydalanuvchi ekanligini bilish. To‘rtinchi mezon aniqlik, ya‘ni axborotning dalillar, rasmiy hujjatlar yoki ilmiy tadqiqotlar bilan asoslanganligini tekshirish. Beshinchi mezon maqsad, ya‘ni axborot nima uchun yaratilganini aniqlash. Xabar haqiqatni yetkazish uchunmi, hissiy ta‘sir ko‘rsatish, reklama yoki siyosiy g‘oya targ‘iboti uchunmi, shuni farqlash muhim.

Masalan, “Yangi texnologiyalar yordamida 5 daqiqada til o‘rganish mumkin” degan maqolani olaylik. CRAAP testi asosida uni tahlil qilsak, maqola uch yil avval e‘lon qilingan, muallif noma‘lum bloger, dalillar keltirilmagan, maqsad esa reklama ekani aniqlanadi. Demak, bu xabar ishonchsizdir.

CRAAP testi o‘qituvchilarga har qanday ma‘lumotni tez, mantiqan va tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, dars uchun video, maqola yoki infografika tanlayotganda bu usul juda qulaydir. U orqali pedagoglar o‘quvchilarni nafaqat axborotni izlashga, balki uni chuqur tahlil qilishga, mantiqiy xulosalar chiqarishga va ishonchlilikni aniqlashga o‘rgatadi. Shu bois bu ikki yondashuv 5W1H va CRAAP mediasavodxonlikning amaliy asosi, tanqidiy fikrlashning esa eng muhim vositalaridan biridir.

Axborot oqimi cheksiz, lekin insonning e‘tibori, sabr-toqati va tahlil qilish qobiliyati esa cheklangan. Shu sababli o‘qituvchi har bir xabarni qabul qilishdan

oldin nafaqat uning manbasi, balki ichki mazmuniga, maqsadiga va hissiy ta'siriga ham e'tibor qaratishi zarur.

Umuman olganda, tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko'nikmalari mediasavodxon jamiyatning asosi, pedagogning esa kasbiy yetuklik belgisi hisoblanadi. Har bir o'qituvchi o'zining "axborot filtrini" kuchaytirgan sari, u faqat o'quvchilarni emas, balki butun jamiyatni noto'g'ri axborot va manipulyatsiyadan himoya qiluvchi ma'naviy qalqonga aylanadi.

